



UDK:102.1.026:17(574.3)

Gulhayo ISMOILOVA,
Turon universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: gulhayo92@mail.ru

Qarshi davlat universiteti dotsenti Z.Boymurodov taqrizi asosida

SHAXS MA'NAVY QIYOFASINING TARIXIY BOSQICHLARDA NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs ma'naviy qiyofasining turli tarixiy bosqichlarda shakllanishi nazariy jihatdan tahlil etiladi. Inson ma'naviy olamining ijtimoiy, madaniy va falsafiy omillar ta'sirida o'zgarishi hamda davrlar kesimida namoyon bo'lish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda ma'naviy qadriyatlarining shakllanish jarayoni va ularning shaxs qiyofasiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada mavjud nazariy qarashlar tahlil qilinib, shaxs ma'naviy qiyofasining tarixiy taraqqiyoti bo'yicha umumiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlari: shaxs, ma'naviy qiyofa, tarixiy bosqichlar, nazariy tahlil, ma'naviyat, qadriyatlar, falsafiy qarashlar, taraqqiyot, iqyisodiy jarayonlar, siyosiy jarayonlar, madaniy jarayonlar, ijtimoiy jarayonlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА НА ИСТОРИЧЕСКИХ ЭТАПАХ

Аннотация

В статье теоретически анализируется формирование духовного облика человека на разных исторических этапах. Раскрываются изменения духовного мира человека под влиянием социальных, культурных и философских факторов и особенности его проявления в разные эпохи. На научной основе рассматривается процесс формирования духовных ценностей в различные исторические периоды и их влияние на образ человека. В статье анализируются существующие теоретические взгляды и даются обобщающие выводы об историческом развитии духовного облика человека.

Ключевые слова: личность, духовный образ, исторические этапы, теоретический анализ, духовность, ценности, философские взгляды, развитие, экономические процессы, политические процессы, культурные процессы, социальные процессы.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL IMAGE OF A PERSON IN HISTORICAL STAGES.

Annotation

This article theoretically analyzes the formation of the spiritual image of a person at different historical stages. The changes of the human spiritual world under the influence of social, cultural and philosophical factors and the features of its manifestation in the cross-section of periods are highlighted. Also, the process of formation of spiritual values in different historical periods and their influence on the image of a person are considered on a scientific basis. The article analyzes the existing theoretical views and gives general conclusions on the historical development of the spiritual image of a person.

Keywords: personality, spiritual image, historical stages, theoretical analysis, spirituality, values, philosophical views, development, economic processes, political processes, cultural processes, social processes.

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti davomida shaxsning ma'naviy qiyofasi turli davrlarda o'ziga xos tarzda shakllanib kelgan. Har bir tarixiy bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, madaniy muhit va falsafiy qarashlar insonning ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatib, uning qiyofasida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Shu bois shaxs ma'naviy qiyofasining evolyutsiyasi masalasi falsafa, tarix, pedagogika va sotsiologiya fanlari uchun muhim ilmiy mavzu bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda globallashtirish, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi hamda turli g'oyaviy oqimlarning kuchayishi shaxs ma'naviy olamining tarixiy ildizlarini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Zero, ma'naviyat insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy hayotdagi faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Mazkur maqolada shaxs ma'naviy qiyofasining tarixiy bosqichlarda shakllanishi nazariy jihatdan tahlil qilinadi, mavjud konseptual yondashuvlar ko'rib chiqilib, shaxs ma'naviy olamining taraqqiyoti bo'yicha umumiy xulosalar chiqariladi.

Muhokama va Natijalar. Kishilarning ma'naviy olami insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlariga mos holda shakllanadi. Lekin har bir bosqichda turli jamiyatlar

umrguzaronlik qiladi, ulardagi kishilarning ma'naviy qiyofalari bir-biridan farqlanadi. Ayrim hollarda (masalan, bir davrdagi Sharq va G'arb jamiyatlarini taqqoslaganda) mazkur tafovutlar mutlaqo keskin tusda namoyon bo'ladi. Xo'sh, bu tafovutlarning sabablari nimada? Mazkur savol ustida mulohaza yuritsak, qiziq xulosaga kelamiz: muhit – ma'naviy qiyofa modeli hamda paradigmasi manbayidir, xolos. Ammo bu model turli jamiyatlarda turli xil shaklga ega bo'ladi. Masalan, ibtidoiy jamoalarda yashagan odam bolasi dunyoqarashi va ruhiyati mifologik xarakterda bo'lganini bilamiz. Ayni paytda o'sha davrda bir jamoada yashagan kishilarning ma'naviy olami bilan boshqa jamoa vakillari ma'naviy qiyofasi o'rtasida farqlar ham mavjud bo'lgan. O'rta asrlar kishilik jamiyatida odamlar ma'naviy qiyofasi o'zining teosentrik xakteri bilan tavsiflanardi, ayni paytda o'sha davrda turli jamiyatlarda yashagan individlar tuyg'u va kechinmalari, bilim va qadriyatlari, fazilat va xislatlarining shakllanganligi darajasida tafovutlar mavjud edi. Uyg'onish davrida antroposentrizm barcha jamiyatlarda kishilar ma'naviy qiyofasi xarakterini belgilovchi paradigmaga aylandi, biroq bu umumiy paradigma shu davrda mavjud bo'lgan sotsiumlar ma'naviyatini aynanlashtirib yuborgani yo'q. Insoniyat

rivojining keyingi bosqichlarida ham shunday holat kuzatildi[1].

Bir davrda turli jamiyatlarda yashagan kishilar ma'naviy qiyofasining bir xil paradigmasiga ega bo'lgan holda turli shakllar kasb qilishining sababi shundaki, shaxs ma'naviy olami nafaqat davr ijtimoiy muhiti, balki jamiyatda kechayotgan turfa ijtimoiy jarayonlar ta'sirida ham shakllanadi. Bu jarayonlar kishilarning hissiy olamidani tortib aql-zakovatiga qadar, bilimlari saviyasidan tortib qadriyatlariga qadar – barcha-barchasini yo'naltirib, muvofiqlashtirib boradi.

Shaxs ma'naviy qiyofasiga jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarning ta'siri beqiyos. Iqtisodiy jarayonlar shaxsning muayyan tuyg'u va kechinmalari, fazilat va xislatlarining rivojlanishi, boshqalarining esa soyada qolishi uchun turtki beradi. Iqtisodiy voqelik, shuningdek, shaxsning iqtisodiy bilimlari va qadriyatlari iyerarxiyasini shakllantiradi. Jamiyat iqtisodiy borlig'idagi har qanday o'zgarish shaxs tuyg'u va kechinmalari, fazilat va xislatlari, bilim va qadriyatlarining ham o'zgarishiga olib keladi. Masalan, Sovet hokimiyati yillarida davlat mulki ustuvorligi ta'minlangandi. Bu davrda mulkchilikning boshqa shakllari rivoji uchun mutlaqo'z izn berilmadi. Ayniqsa xususiy mulkchilikning shakllanishiga jiddiy to'siqlar qo'yildi. Mamlakat fuqarolariga hayotiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan cheklangan shaxsiy mulkka ega bo'lish imkoni qoldirildi, xolos. Buning ustiga, davlat mulkining barcha shakllari rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida boshqarib borildi. Oqibatda, bir tomondan, kishilarda fidoyilik kuchaydi, ular ozga ham qanoat qilishga odatlandilar – bularni ijobiy baholash mumkin, albatta. Lekin, ikkinchi tomondan, mavjud iqtisodiy voqelik ishbilarmonlik va uddaburonlik xislatlarini ikkinchi o'ringa tushirib qo'ydi. Shuning bilan bir qatorda sovet iqtisodiy voqeligi oqibatida, I. Karimov ko'rsatganidek, shaxs ma'naviy qiyofasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qator illatlar ildiz otdi. Xususan, rejali iqtisodiyot kishilarni mol-mulkdan ajratib qo'ydi, ulardagi xo'jayinlik tuyg'usini yo'qotdi, boqimandalik kayfiyatini kuchaytirib yubordi.

Mustaqillik mavjud vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Avvalo, 1992- yilda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi bilan bozor iqtisodiyoti mexanizmlari, turli mulkchilik shakllari tengligi qat'iy belgilab qo'yildi[2]. Jamiyat a'zolariga mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga faol ishtirok etish, mulkdor bo'lish, o'z mulkidan o'z inon-ixtiyoriga ko'ra foydalanish imkoniyatlari taqdim qilindi. Ayniqsa, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun real shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida jamiyat a'zolarining tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi fazilat va xislatlari rivoj topa boshladi. Mamlakatda yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining oshib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shaxs ma'naviy qiyofasiga jamiyat siyosiy sistemasi va siyosiy jarayonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat boshqaruvi shakli va siyosiy rejim, mamlakatdagi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari kabi siyosiy institutlar faoliyati, jamiyat siyosiy hayotini muvofiqlashtiruvchi siyosiy normalar, siyosiy subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar – bularning barchasi shaxs tuyg'ulari, fazilatlar, qadriyatlar va e'tiqodida albatta iz qoldiradi. Mamlakatdagi siyosiy voqelik transformatsiyasi jamiyat a'zolari ma'naviy qiyofasining ham o'zgarishiga olib keladi.

XX asrning oxirgi o'n yilligi va yangi asrning dastlabki choragida sobiq SSSR hududida, xususan, O'zbekistonda yuz bergan jarayonlar bu aloqadorlikni yaqqol namoyon etdi. Ma'lumki, Sovet hokimiyati yillarida o'ta markazlashtirilgan siyosiy tizim shakllantirilgan edi. Bu tizimning asosini mamlakatning yagona siyosiy partiyasi – KPSS tashkil etardi.

Yagona partiyaning rahbarlik roli hatto SSSRning 1977-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgandi. Uning 6-moddasida qayd qilinishicha, KPSS sovet jamiyatini yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi va siyosiy tizimning negizini tashkil etadi. Boshqa siyosiy institutlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar aynan ana shu partiya tomonidan belgilangan siyosiy normalarga bo'yundirilgandi[3]. Kommunistik partiya hukmronligiga asoslangan bunday g'ayritabiiy siyosiy tizim jamiyat a'zolari ma'naviy qiyofasiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Ularning tuyg'u va kechinmalari, fazilat va xislatlari, bilim va e'tiqodlari ham kommunistik tus oldi. Masalan, vatanparvarlik deganda jamiyatning aksariyat a'zolari kommunistik g'oyalarga sadoqatni tushuna boshladilar.

Mustaqillik siyosiy voqelikni o'zgartirdi. O'zbekistonda yangi davlatchilik asoslari vujudga keldi. Jamiyatning siyosiy borlig'i barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi ko'ppartiyaviy tus oldi. Uzoq yillik tanaffusdan so'ng fuqarolik jamiyati institutlari real subyektlarga aylana boshladi. Bularning barchasi qonuniy ravishda odamlarning ma'naviy olamiga ham ta'sir o'tkazdi – voqealar ta'siri o'laroq u milliy tus oldi va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashdi. Ayniqsa, keyingi yillarda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar kishilar ma'naviy qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar sharofati bilan mamlakatda erkinlik va oshkoralik muhiti qaror topdi. Buning natijasida jamiyat a'zolarida optimistik kayfiyat shakllana boshladi. Shuningdek, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlik, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari rivojlandi. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: "Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymoqda", – deb ta'kidlagan edi[4].

Ma'naviy qiyofa ijtimoiy jarayonlar bilan ham uyg'un holda shakllanadi. Turli ijtimoiy subyektlar orasidagi aloqalar, shaxslararo munosabatlar, jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligi, bir-biriga ishonchi shaxs ma'naviy qiyofasining barcha tarkibiy elementlarini o'zgartirishga qodir[5]. Masalan, ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi aloqalar ijtimoiy adolat tamoyillari asosida yo'lga qo'yilgan jamiyatda kishilarda optimistik kayfiyat ustuvor bo'ladi, buning aksi esa jamiyat a'zolarida pessimistik kayfiyatning ildiz otishiga olib keladi. Shaxslararo munosabatlarda o'zaro hamkorlik va ishonch tamoyillari ustuvorligi jamiyat a'zolarida insonparvar e'tiqod, ijtimoiy ahamiyatli fazilat va xislatlarning shakllanishiga turtki beradi. Aksincha, kishilar o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishonch yo'qolib borgani sayin insonparvar e'tiqod va ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarining qaror topishi ham qiyinlashaveradi.

Masalan, stalincha sotsializm total nazorat prinsipiga asoslangan edi. Ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi aloqalar o'zini hatto davlatdan ustun qo'yadigan partiya organlari tomonidan keskin muvofiqlashtirib borilardi. Bunday haddan ziyod "muvofiqlashtiruv" subyektlar o'rtasidagi pragmatik munosabatlarga chek qo'ydi, ularning o'rnini asta-sekinlik bilan volyuntaristik xarakterga ega aloqalar egalladi. Aqlga muvofiqlikdan yiroqlashib borgan subyektlararo munosabatlar jamiyat a'zolarida umumiy tushkunlik kayfiyatini qaror toptirdi.

Shaxslararo munosabatlarning total nazorati ham ijobiy oqibatlar bilan yakun topgani yo'q: yakkahokim partiya faqat o'ziga ishonchni, o'zi bilan hamkorlikni rag'batlantirdi, xolos. Nazorat oqibati o'laroq odamlarda qabul qilingan qarorlarni tanqidiy tahlil qilish malakasi susaydi, ularni so'zsiz qabul qilish ilinji paydo bo'ldi. Qizig'i shundaki, partiya so'zsiz ishonch bilan hamohang ravishda o'zaro ishonchsizlik muhiti ham paydo bo'ldi. Sirasini aytganda, yalpi chaquv tizimining

shakllanishi ham alaloqibat ushbu sabablarga borib taqaladi. Bir-biriga ishonchini yo'qotgan fuqarolar arzimasi bahonalar uchun ham bir-birlarini chaqishga odatlanib qoldilar. Ma'lumotlarga qaraganda, 1928–1938-yillar oralig'ida mutasaddi tashkilotlar fuqarolardan 4 milliondan ortiq chaquv xatlari olganlar[6]. Mazkur g'ayriijtimoiy voqelik barham topganidan keyin ham vaziyat keskin o'zgarishi yo'q. Chaquv, qo'rquv keyingi davrlarda ham yuzlab kishilarning hayotiga rahna solgani, odamlarning ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatgani yaxshi ma'lum.

Nihoyat, shaxs ma'naviy qiyofasi jamiyatdagi madaniy jarayonlar kontekstida shakllana boradi. Milliy madaniyatning turli sohalarida sodir bo'lgan har qanday o'zgarish jamiyat a'zolari tuyg'u va kechinmalarida, kayfiyatida, fazilatlar dunyosida, bilim va e'tiqodida, hatto irodasi va ma'naviy jur'ati darajasida o'z aksini topadi. Biroq buning uchun jamiyatda yuz berayotgan madaniy voqealar tom ma'noda madaniy jarayon darajasiga ko'tarilmog'i darkor. Aytaylik, bir yoki ikki muzeyning ochilishi, bir yoki ikki san'at asarining paydo bo'lishi kabi juz'iy madaniy voqealar shaxs ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubormaydi. Bunday madaniy voqealarning keng ko'lamda va muttasil sodir bo'lishi, o'ziga xos tendensiyaga aylanishi ularni madaniy jarayonga aylantiradi, ana shunday madaniy jarayonlar shaxs ma'naviy olamini rivojlantiruvchi qudratli omil vazifasini o'taydi.

Sovet hokimiyati yillarida madaniy jarayonlar o'ta ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'ldi. Bir tomondan, uning ayrim yo'nalishlari jamiyat a'zolari ma'naviy qiyofasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimining shakllantirilishi aholi savodxonligini 98-99 foizga yetkazdi. Savodxonlikning oshishi fuqarolarga umuminsoniy moddiy va ma'naviy merosni o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi[7]. Natijada kishilar turli ijtimoiy va kasbiy bilimlarni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Lekin ayni paytda milliy madaniyatning kamol topishiga xalal beradigan holatlar ham asta-sekinlik bilan ko'payib bordi. Bu holatlar odamlarning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Masalan, milliy tillar rivojiga e'tiborsizlik, milliy tillar muomala doirasi-ning uzluksiz toraytirib borilishi nafaqat

milliy adabiyot va san'atga, balki kishilar ma'naviy olamiga ham foyda keltirgani yo'q. Buning oqibatida milliy tilni puxta o'zlashtirmagani, milliy adabiyot va san'at durdonalaridan to'laqonli bahramand bo'lmagani tufayli milliylikdan yiroq ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan kishilar soni ko'payib ketdi.

Mustaqillik yillarida milliy madaniyatni tiklashga yo'naltirilgan madaniy jarayonlar sodir bo'la boshladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki "dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat avvalo o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi". Shu boisdan milliy tilga davlat tili maqomi berildi, uning muomala doirasi kengaytirildi, milliy adabiyot va san'at rivojiga tamal toshi qo'yildi, ayniqsa, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar rivoji davlat siyosatiga aylandi. Uning intihosida ma'naviy qiyofa milliylashdi, kishilarning milliy til, adabiyot va san'at, urf-odat va an'analar, madaniy meros, qadriyatlardan xabardorligi va o'zlashtirganligi darajasi ortdi.

Shunday qilib, davr ijtimoiy muhiti shu davrda yashagan barcha kishilar ma'naviy olamining paradigmasini belgilab beradi. Tarixiy taraqqiyotning muayyan davrida mavjud bo'lgan turli sotsiumlardagi ma'naviyatlar tafovuti jamiyatda yuz bergan voqea va jarayonlardan kelib chiqadi.

Xulosa. Shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli tarixiy davrlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy sharoitlari inson ma'naviy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, shaxs ma'naviy qiyofasining rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, u qadriyatlar tizimining o'zgarishi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va falsafiy qarashlarning yangilanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda shaxs ma'naviy qiyofasini tarixiy ildizlari asosida o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviy qadriyatlarining tarixiy taraqqiyotini anglash zamonaviy jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalash, sog'lom g'oyaviy muhitni shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.:Ўзбекистон, 2019. – Б.18.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзгиримиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли.// Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.166.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.// Ўзбекистон: мил-лий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-том. – Т.:Ўзбекистон, 1996. – Б.294.
4. Ўзбекистонда яқка тартибдаги тадбиркорлар сони 233 минг нафардан ошди.// aniq.uz, 2023, 16 февраль.
5. Чориев С.А. Сиёсий етук шахс. – Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2004.
6. Беккер В.Я. Эволюция системы политической власти в СССР.// Вестник Хакасского государственного университета им. Н. Ф. Катанова, 2017, №22. – 13-19-с.
7. Конституция (Основной закон) Союза Советских Социалистических Республик.// constitution.garant.ru/history/ussr-rsfr/1977/red_1977/5478732/?ysclid=lhmyiakvdk291192752.